



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
*international academic peer reviewed journal*

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
*международный научный рецензируемый журнал*

**2025/1 (14)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630**

**TOSHKENT**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**ZOXIDOV Azamat Azamjonovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Таизила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмурадов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайрullaевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акмал Холматович** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Дилюбар Батировна** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмуҳамедова Дилюрам Гафуржановна** – кандидат медицинских наук.

**Зоҳидов Азamat Азамjonovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Азamat Хамидovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Хасанбой Усмонjon уғли** – доктор психологических наук.

**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullaevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Zokhidov Azamat Azamjonovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
Rossiya va Markaziy Osiyon  
o'rganish markazi dotsenti  
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,  
Javoharlal Neru universiteti,  
Nyu-Dehli, Hindiston

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
Chelyabinsk davlat madaniyat  
instituti,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Doktor Priti Kesavan,**  
Texnologiya fakulteti boshlig'i,  
London biznes va moliya maktabi,  
Singapur

### МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
Доцент Центра исследований  
России и Центральной Азии,  
Школа международных  
исследований,  
Университет Джавахарлала Неру,  
Нью-Дели, Индия

**Артамонова Екатерина  
Иосифовна,**  
Челябинский государственный  
институт культуры,  
доктор педагогических наук,  
профессор

**Доктор Прити Кесаван,**  
Руководитель Технологического  
факультета  
Лондонская школа бизнеса и  
финансов, Сингапур

### INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**  
Assistant Professor  
Centre for Russian and Central Asian  
Studies  
School of International Studies  
Jawaharlal Nehru University  
New Delhi, India

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
Chelyabinsk State Institute of Culture  
Doctor of Pedagogical Sciences,  
Professor

**Dr. Preethi Kesavan**  
Head, School of Technology  
London School of Business and  
Finance, Singapore

*MENEJMENT*

**Xaydarova J.A.** Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyaning rivojlantirish zaruriyati.....4

*SOTSILOGIYA*

<b>Muxamedjanova L.</b> Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari.....	12
<b>Axmedova D.O.</b> Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya .....	19
<b>Vaxidova S.A.</b> Gender rollarining evolyutsiyasida ta'lif institutining o'rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....	26
<b>Komilova X.T.</b> Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili .....	37
<b>Xudoyberdiyeva M.</b> O'smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....	42
<b>Alimasov V.A.</b> O'zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....	47
<b>Samanova Sh.B.</b> Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabiat munosabatlarining o'zgarib borishi .....	53

*OILA VA JAMIYAT*

<b>To'rayev O.B.</b> Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta'siri .....	59
<b>Saipova M.L.</b> Migratsiya daxl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarda o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni.....	68
<b>Abduraximova F.Y.</b> Oilalarda ma'nnaviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari.....	73
<b>Ganiyev A.A.</b> The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia .....	77
<b>Toshmurodov M.I.</b> Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi .....	82

*PSIXOLOGIYA*

<b>Bo'riyeva M.Sh.</b> Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari .....	88
<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	93
<b>Raximova X.</b> Oilada shaxsdagi stress va o'ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida .....	99
<b>Nasrullayeva A.A.</b> Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari .....	104
<b>Sultanova S.M.</b> Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari .....	110
<b>Абдуганиева Д.А.</b> Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности .....	115
<b>Асанова Г.М.</b> Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией .....	122
<b>Olimjonova Z.B.</b> Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128	
<b>Sharipova A.S.</b> Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence .....	136

*PEDAGOGIKA*

**Matkarimov A.M.** Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta'lifi funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....141

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHILLAR*

<b>Hojiyev R.B.</b> Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida) .....	147
<b>Rustamova N.Y.</b> Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....	154
<b>Bakirova N.B.</b> Professional ta'lif muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash mexanizmlari....161	
<b>Mycaeva M.I.</b> Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями ....168	



**Axmedova Dildora Olimjonovna,**  
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti,  
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti  
e-mail: ahmedovadildora4@gmail.com

# MEHNAT MIGRATSİYASI FEMINİZATSİYALASHUVI: XOTIN- QIZLAR PSIXOLOGİYASI VA İJTİMOİY IDENTİFIKATSIYA

**Annotatsiya.** Migratsiya oqimlarining feminizatsiyasi, ya’ni migrantlarning umumiy sonida ayollar ulushining oshishi ekspertlar tomonidan xalqaro mehnat migratsiyasi rivojlanishining eng yangi bosqichining o’ziga xos xususiyati sifatida eʼtirof etilmoqda. Bu ko’p jihatdan globallashuv jarayonlari bilan birga keladigan jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o’zgarishlar bilan bog’liq. Bandlik tuzilmasida xizmat ko’rsatish sohasining ortib borayotgan ustunligi rivojlangan davlatlarning xizmat ko’rsatish sohasida malakasiz mehnatda band bo‘lgan migrant ayollarga bo‘lgan ehtiyojini shakkllantiradi.

**Tayanch so‘zlar:** migratsiya, femininlik, hayotdan qoniqish, shaxslararo munosabatlar, mehnat resursi, motivatsiya, ehtiyoj, mustaqillik, ierarxiya.

**Аннотация.** Феминизация миграционных потоков, то есть увеличение доли женщин в общей численности мигрантов, признается специалистами характерной чертой новейшего этапа развития международной трудовой миграции. Во многом это обусловлено структурными изменениями в мировой экономике, сопровождающими процессы глобализации. Расступающее доминирование сферы услуг в структуре занятости формирует потребность развитых стран в женщинах-мигрантах, занятых неквалифицированным трудом в сфере услуг.

**Ключевые слова:** миграция, женственность, удовлетворенность жизнью, межличностные отношения, трудовой ресурс, мотивация, потребность, независимость, иерархия.

**Annotation.** The feminization of migration flows, that is, an increase in the share of women in the total number of migrants, is recognized by experts as a characteristic feature of the latest stage in the development of international labor migration. This is largely due to structural changes in the world economy, which are accompanied by globalization processes. The increasing dominance of the service sector in the employment structure forms the need of developed countries for migrant women employed in unskilled labor in the service sector.

**Keywords:** migration, femininity, life satisfaction, interpersonal relationships, labor resource, motivation, need, independence, hierarchy.

**Kirish.** Migratsiya masalalari insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotlariga muvofiq ushbu jarayon xuddi

shunday intensivlikda davom etsa, 2050-yilda migrantlar dunyo bo‘yicha 405 mlnni tashkil etish ehtimoli baland<sup>1</sup>. Ushbu jarayonda faol

<sup>1</sup> Mahonen T.A. Acculturation expectations and experiences as predictors of ethnic migrants’ psychological

ishtirok etuvchi davlatlar funksiyalariga ko‘ra, migrantlarni chiqaruvchi (donor mamlakatlar), tranzit qiluvchi, qabul qiluvchilar (retsipiyyet davlatlar) kategoriyalariaga ajralmoqda<sup>2</sup>. Ayniqsa, mehnat migratsiyasining ko‘lami uchala turdag'i davlatlar uchun ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni shakllantirmoqda. Shunday bo‘lsa-da, qabul qiluvchi mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasi ishchi kuchining yosharishi ayrim sohalarning intensiv rivojlanishi (qishloq xo‘jaligi, qurilish, shaxsiy xizmatlar, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, kadrlar tanqisligi)ga turtki bo‘lmoqda. O‘z o‘rnida, migrantlarni yetkazib berayotgan davlatlar esa valyuta transferlari ulushidan katta moliyaviy manfaat ko‘rmoqdalar. Rivojlangan davatlarga ko‘chib borgan kishilar esa, o‘z yurtiga investitsiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion mehnat ko‘nikmalari va yangi tajribalar olib kirmoqdalar. Bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosi o‘smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan ojiz qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

**Maqsad va uni asoslash.** So‘nggi tadqiqotlarda ayollar migratsiyasi qashshoqlik, gender tengsizlik, moliyaviy farovonlik xohishi kabi sabablar bilan bir qatorda, ijtimoiy frustratsiya (hozirgi holatidan qoniqmaslik), ayollarga imkoniyatlarning ortishi, gender rollarning tenglashishi, karyeraga intilishi ham ayollarning erkinlikka, mustaqillikka intilishining ortib borishiga motiv vazifasini bajarmoqda. Ayollar migratsiyasining rivojlanishi ijtimoiy jamiyat hayotida qarovsiz farzandlar, qariya ota-onalar, ajralishlar, yot qadriyatlarni o‘zlashtirish, xulq-atvorining o‘zgarishi va nizoli oilalar sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu kabi muammolar ayollar migratsiyasining ijtimoiy-psixologik tadqiq etilish zaruratini hosil qilmoqda.

---

well-being / T.A. Mähönen, I. Jasinskaja-Lahti // Journal of Cross-Cultural Psychology. –2013.– Vol. 44. – № 56. – P. 178.

<sup>2</sup> Graeme H. “Migration and Women’s Empowerment” in Presser, Harriet/Sen, Gita (ed), Women’s Empowerment and Demographic Processes, Moving beyond Cairo, Oxford, 2000, p.288.

Nikoh migratsiyasi rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlanmagan, moliyaviy yashash darajasi past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan davlatlardagi migrantlarning borishi va oila qurishi hisobiga kundan kunga o‘sib bormoqda. Ayollar uchun eng katta motiv moliyaviy barqarorlik bo‘lsa, erkaklar uchun boshqa omillar ustunlik qiladi, masalan, boshqa davlatda yashash huquqini qo‘lga kiritish kabi. Migratsianing qanday ko‘rinishi bo‘lishidan qat’i nazar ijtimoiy psixologik muammolar ham mavjud bo‘ladi. Jumladan, adaptatsiya jarayonida inson til bilan bog‘liq muammolar, qadriyatlar tizimi kabi insonga begona jarayonlarni o‘zlashtirishda individual psixologik stressni boshdan kechiradi. Migratsianing eng asosiy qismini mehnat migratsiyasi egallaydi. Mehnat jarayonidagi insonga xavf beruvchi eng katta omil jismoniy va psixologik stressning normadan oshib ketishi hisoblanadi.

Butun dunyoda ayollar migratsiyasi tezlik bilan ortmoqda. Shulardan biri – majburiy migratsiyadir. Majburiy migratsiya sodir bo‘lishiga bir qancha sabablar mavjud. Masalan, mamlakatdagi siyosiy notinchlik, mintaqaviy muammolar (suv taqchilligi, yashash uchun sharoitning yo‘qolib borishi), qashshoqlik. Qashshoqlik sabab migratsiya jarayoni ortib borishi tabiiy jarayon hisoblanadi, ammo o‘ta qashshoqlikda yashovchi mamlakatdagi ayollar migratsiya ham qila olishmaydi, chunki transport muammosi, boshqa davlatga borgungacha bo‘lgan xarajatlar, shu bilan bir qatorda u yerdagi ayollarning ma'lumot darajasi ham muammoli holat hisoblanadi. Ayollar migratsiyasi, asosan, rivojlanish bosqichidagi mamlakatlarda ko‘p kuzatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim ham, kasblar ham, yashash sharoiti va chetga chiqish imkoniyatlari ham rivojlanib boradi. Fuqarolar ta’lim olish, yaxshi mablag‘ topish, eng yaxshi hunarlarni o‘rganish uchun ham migratsiya qilishadi. Ayollar hozirda erakklardan mustaqil ravishda migratsiya qilishi ko‘paymoqda. Bunga sabab gender tenglik va ayollar uchun imkoniyatning oshib borayotganligi hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, ayollar hamon migratsiya jarayonida ikkinchi darajali bo‘lib ko‘rinmoqda va migratsiya qurbanlari orasida ayollar yetakchilik qilmoqda<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Hania Z. Female migrants: bridging the gaps throughout the life cycle selected papers of the unfpiaiom expert group meeting New York, 2-3 may 2006.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar shaxsiy manfaat va ko'proq avtonomiyaga intilishlari hamda o'zlarini patriarchal muhitdan, jumladan, zo'ravonlik keng tarqalgan sharoitlardan chetlatish istagida bo'lishlari uchun ham migratsiya qilishmoqda<sup>4</sup>. Ayollar migratsiyasi turlari bo'yicha oxirgi o'rnlarda turuvchi ta'lim migratsiyasi ham ayollarni o'ziga jalb qilmoqda. Ta'lim migratsiyasi asosini yosh ayollar tashkil qiladi. E'tiborli jihat shundaki, ayollar uchun zulm, zo'ravonlik ko'p bo'lgan hamda huquqi ta'minlanmagan davlatlardan ketishning eng ma'qul yo'li ta'lim migratsiyasi hisoblanadi. Chunki, ta'lim migratsiyasi vaqtinchalik bo'lsa-da, uni uzoq vaqtli migratsiyaga aylantirish imkoniyati yuqori. Ta'lim olgan joyida doimiy ishslash uchun qolishi yoki oila qurib rivojlangan davlat fuqaroligiga erishish mumkin<sup>5</sup>.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Ayollar, tarixan olib qaralsa, juda ko'p davlatlarda erkaklardan oldin doimiy ichki va tashqi migratsiya ishtirokchisi bo'lgan. Masalan, Hindiston va O'rta Osiyo hududlarida ayollar turmush o'rtog'ining uyiga nikohdan so'ng ko'chib o'tgan. Tashqi migratsiya esa keyinchalik boshqa davlatlarga turmushga chiqish orqali rivojlanib borgan. Yevropa, AQSh va Rossiya kabi davlatlar ayollar nikoh migratsiyasi uchun "mezbon erkaklar mamlakatlari" bo'lib qolmoqda. Bu xalqaro migratsiya siyosatining og'riqli muammolaridan biri hisoblanadi. Hozirda "soxta nikohlar" ko'payib bormoqda, shu bilan birga, ayollarning "odam savdosi" qurboni bo'lishga olib kelish ehtimolini kuchaytirmoqda. Ayollar migratsiyasi va "odam savdosi" o'rtasida juda nozik chiziq mavjud. Qul qilib yoki fohishalikka sotish ayollar migratsiyasidagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Hozirda juda ko'plab tashkilotlar ayol migrantlar huquqi uchun kurashib kelmoqda<sup>6</sup>. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, migratsiyaning

<sup>4</sup> Yang F. Breadwinning: Migrant workers' family motivation in facing life-threatening events and its performance implications. Journal of Business Research, 2022, no. 150, pp. 491–502.

<sup>5</sup> Алексанрова О.Е. Семейные и индивидуально-психологические характеристики жизнеспособности эмигрантов. Человек в условиях неопределенности. Сборник научных трудов научно-практической конференции с международным участием. В 2-х т. Т. 1. Бакшутова Е.В.

<sup>6</sup> Баднер С. Нетерпимость к неопределенности как переменная личности. Журнал личности. 1962. вып. 3 (1). – С. 29–50

muvaffaqiyatli bo'lishi migratsiyaga undovchi motivga bog'liq. Motivlarning ayollar va erkaklarda turlicha bo'lishini jinsga bog'liq deb tushuntirish mumkin. Bundan tashqari, erkak va ayolda dunyon, voqe-a-hodisalarни qabul qilishdagi ruhiy holat ham tubdan farq qiladi.

Migratsiya motivida moddiy ehtiyoji mavjud bo'lgan ayollar ham madaniy stressni boshdan kechiradilar. Qabul qilinishi qiyin bo'lgan munosabatlar, qadriyatlar, kommunikativ qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay, muhitga moslashishga harakat qilayotgan ayol o'zini rol o'ynayotgandek his qilishi tadqiqotlarda aniqlangan<sup>7</sup>.

Migratsiyaga tayyorgarlik ko'rayotgan ayol, albatta, ko'chib o'tayotgan davlatining urf-odatin, an'analarini, qadriyatlar tizimi va tilini o'rganishga harakat qiladi. Ko'chib o'tish maqsadiga ko'ra rejalar tuzadi. Natijada, ayol migratsiyadagi "ideal"ni o'zining ongida yaratadi. Migratsiya jarayonida esa shunchalik tafovut katta bo'lishi mumkinki, ongidagi "Ideal men va haqiqiy men"i o'rtasida chalkashlik, yolg'izlik hissi paydo bo'ladi. Kelajagi haqida salbiy tassavurlar paydo bo'ladi. Hozirgi kun haqida o'ylay olmaydi. O'ziga ishonchni, haqiqiy o'zligini yo'qota boshlaydi. Bu jarayon har bir migrantda emas, asosan, birinchi bor migratsiyaga borayotgan va melanxoliyaga moyil shaxslarda ko'proq va kuchliroq kuzatiladi. Streesli vaziyatlarda inson imkoniyatlarni yoki erishilayotgan natijalarni past baholashga moyilligi oshadi. Ko'ngilsizliklarni esa katta deb hisoblaydi. Bu insonning shaxsiyati bilan bog'liq jarayon bo'lgani bois psixologik xizmat doirasida ishslash samara beradi<sup>8</sup>.

Ayollar migratsiyasida psixologik muammolar bilan bir qatorda quyidagi masalalarni ham keltirib o'tish joizdir. Ayollarning odam savdosi, jismoniy va jinsiy zo'ravonlikka uchrashini ayollar migratsiyasining eng xavfli muammolaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yashirin, noqonuniy migratsiya esa bu omillarni kuchaytirib yubormoqda. Ayniqsa, bugungi dunyodagi vaziyat: urushlar, siyosiy va ekologik beqarorlik ayollarni

<sup>7</sup> Барсукова М.Е. Женщины и миграция: причины, проблемы и последствия // Женщина в российском обществе. 2012. № 2. –С. 78-82.

<sup>8</sup> Илимбетова А.А. Факторы и экономические последствия женской трудовой миграции в России // Вестник Московского университета. Сэр. 6. 2013. № 4. – С. 89-100.

majburiy migratsiyaga undamoqda. Bu kabi muammolar global hisoblanib, dunyo hamjihatligi orqali bu muammolar o‘z yechimini topishi mumkin. Migratsiya xohishining past rivojlangan va rivojlanayotgan davlat fuqarolari orasida ortib bormoqda. Lekin, migratsiya uchun yaratilgan huquqiy va institutsional infratuzilmalar hammaning ham xohishini amalga oshirishni ta’minlay olmaydi. Natijada, nazoratsiz noqonuniy migratsiya yo‘nalishining rivojlanishi ortib boraveradi. Xotin-qizlarning tashqi mehnat migratsiyasi (Turkiya davlati misolida) o‘rganilganda jami 400 nafar respondent ishtirok etdi (Turkiyda ishlovchi 100 nafar ayollardan, 50 nafari Samarqand, 50 nafari Toshkent viloyati, 50 nafari Surxondaryo viloyati, 50 nafari Farg‘ona viloyatidan, 50 nafari Andijon viloyati, 50 nafari Namangan viloyatidan borib ishlovchi ayollar shular jumlasidandir). Tadqiqotimizda ishtirok etgan xotin-qizlarning 70%i Istanbul shahrida, 20%i Anqara shahrida, 10% esa Bursa shahrida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgani ma’lum bo‘ldi.

1-jadval

#### Turkiya Respublikasiga migrant sifatida borgan xotin-qizlarning oilaviy ahvoli bo‘yicha taqsimoti (% hisobida)

Oilaviy ahvoli	Soni (nafar)	Foiz (%)
Turmushga chiqmagan	83 nafar	20,8%
Oilali	175 nafar	43,8%
Ajrashgan	121 nafar	30,3%
Turmush o‘rtog‘i vafot etgan	21 nafar	5,3%
Jami:	400 nafar	100,0%

Xotin-qizlarning oilaviy ahvoli o‘rganilganda, ulardan turmushga chiqmaganlar 20,8%, oilalilar 43,8%, ajrashganlar 30,3%, turmush o‘rtog‘i vafot etganlar 5,3%ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki, Turkiyaga borib ishlovchilarning aksariyati oilali ayollar hisoblanar ekan. Turkiyaga mehnat migranti sifatida borgan ayollarning kim bilan borganligi so‘ralganda: o‘zi yolg‘iz borgan xotin-qizlar 59,3%, turmush o‘rtog‘i bilan borganlar 3%, dugonalari, tanishlari bilan borganlar 22% hamda qarindoshlari bilan borganlar 15,8%ni tashkil etdi. Raqamlardan oydinlashadiki, Turkiyaga borgan mehnat migrantlarining 59,3% yolg‘iz borgan xotin-qizlar ekan.

2-jadval

#### Xotin-qizlarning migratsiya motivi bo‘yicha ma’lumoti

Migratsiya motivi	Soni (nafar)	Foiz (%)
O‘z xohishiga ko‘ra ketgan	379 nafar	94,8%
Boshqasi ( <i>boshqa sabab bilammi yoki boshqasi-nning xohishiga ko‘rami?</i> )	21 nafar	5,3%
Jami:	400 nafar	100,0%

Xotin-qizlarning migratsiya motivi ham o‘rganilganda 94,8% xotin-qiz mehnat qilish uchun o‘z xohishiga ko‘ra Turkiya davlatiga ketgani aniq bo‘ladi.

3-jadval

#### Xotin-qizlarning migratsiya muddati bo‘yicha ma’lumoti

Muddati	Soni (nafar)	Foiz (%)
3 oydan 1 yilgacha	40 nafar	10,0%
1 yildan 3 yilgacha	117 nafar	29,3%
3 yildan 5 yilgacha	155 nafar	38,8%
5 yildan 7 yilgacha	30 nafar	7,5%
8 yil va undan ko‘p	58 nafar	14,5%
Jami:	400 nafar	100,0%

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xotin-qizlarning aksariyatini 3 yildan 5 yilgacha muddatda Turkiyada mehnat qilayotganlar tashkil etdi.

4-jadval

#### Mehnat migratsiyasiga chiqishga sabab bo‘lgan omillar tahlili

Sabablar	Soni (nafar)	Foiz (%)
O‘qishdan so‘ng yaxshi ish va maosh taklifi	139 nafar	34,8%
Moddiy yetishmovchilik	53 nafar	13,3%
Ish yo‘qligi	190 nafar	47,5%
Oiladagi tazyiq va zo‘ra-vonlikdan qochish	18 nafar	4,5%
Jami:	400 nafar	100,0%

Tahlillardan xotin-qizlarda tashqi mehnat migratsiyasi motivi, asosan, moddiy yetishmovchilik emas, balki ko‘nglidagidek ish mavjud emasligi bo‘lib chiqmoqda. Shuningdek, o‘qishni tugatgandan

keyin mo‘may daromad olish ilinji ham migratsiya motivini yuzaga keltiruvchi omil bo‘lishi kuzatildi. respondentlardan Turkiyada ishni qanday topishi haqida so‘ralganda, Internet va ijtimoiy tarmoq orqali ish topganlar 34,8%ni, mehnat migratsiyasi agentligi orqali ishga ketganlar 17,7%ni, qarindosh yoki tanishlari orqali tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirganlar 47,9%ni tashkil etdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ish topib, tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirayotgan ayollar salmog‘ining yuqoriligi ham ba’zida xotinqizlarning begona yurtda qiyinchiliklarga duch kelib, aldanib qolishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

E.B.Tyuryukova Markaziy Osiyodan kelgan migrant ayollar muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo ayollari ikki xil ko‘rinishda migratsiya qilishadi: mustaqil va qaram. Mustaqil migratsiyada ayollar o‘zлari yolg‘iz boshqa davlatga ish, o‘qish uchun jo‘nab ketsa, qaram holatda turmush o‘rtog‘i, akasi, otasi kabi hamrohlari bilan birgalikda migratsiya qilishadi. Ayollar topgan daromadining katta qismini vatanida qolgan farzandlari yoki ota-onasi, qarindoshlari uchun uyiga yuborishadi. Chunki migrant ayollarning ko‘pchiligi hozirda oilada yagona boquvchi bo‘lib qolmoqda. Migrant ayollarning eng katta muammolaridan biri migratsiya jarayonida tug‘ilgan farzandlar hisoblanadi. Bugungi kunda farzandlarini tashlab ketayotgan migrant ayollar orasida Qirg‘iziston ayollari 1-o‘rinda turadi, keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston va Tojikiston migrant ayollari turishi tadqiqot davomida aniqlangan.

Bolalarni tashlab ketishga sabablar ko‘p bo‘lib asosiylari quyida keltirilgan. Migrant ayollar migratsiya jarayonida farzandli bo‘lishni rejalashtirmasligi, farzandi bilan yashashi uchun joy va sharoitning yo‘qligi, bola bilan ish topa olmasligi yoki ish joyini yo‘qotish ehtimolining yuqoriligi, migratsiya jarayonida tug‘ilgan farzandni o‘z yurtidagi qarindoshlari tan olmasligi kabi sabablar tufayli ayollar farzandlaridan voz kechadi. Bu migratsiyadagi eng katta muammolardan biri bo‘lib, ayollar uchun ham tashlab ketilgan bolalar uchun ham fojiaviy xususiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar migratsiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, gender tengligi bilan bog‘liq muammolar bo‘lishiga qaramay, ayollar migratsiyasi o‘sishi bilan birgalikda qadriyatlar va

an’analalar tizimi ham o‘zgarayotganini kuzatish mumkin.

Dunyoda migratsiyaning rivojlanishi va immigrantlar sonining ortishi katta muammo hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘yicha 30-45 yosh oralig‘idagi migrantlar soni yuqori. Ba’zi migrantlarning migratsiya qilishdan niyati ko‘chib borgan davlatida doimiy qolish, fuqaroligini olish, ya’ni emigratsiyadir. S.L.Kandybovich va M.F.Sekach bu jarayonga quyidagicha tarif bergan: “Shaxsiy xavfsizlikni ta’minalash har bir inson ruhiy hayotining ajralmas qismidir”.

Boshqa davlatda doimiy yashash uchun ketish bir qarashda muammoli jarayon hisoblanmasa-da, an’analarga ko‘ra erta oila qurish tez uchraydi. Bu yosh davrida ayollarning ham, erkaklarning ham ko‘pchiligidagi oilasi bo‘lishi tabiiy holdir. Ularning boshqa davlatda qolib ketishi qarovsiz bolalarning ko‘payishi demakdir. Bugungi kungacha migratsiyaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy vaziyati shaxsning psixologik holati natijasi sanaladi. Ayollar migratsiyasi hissiy va xulq-atvor komponentlari asosida individual holatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy vaziyat va kelajak haqidagi niyatlar bilan chambarchas holda bog‘lanadi<sup>9</sup>.

Shaxsning xarakter-xususiyatlari shakllanishida qadriyatlar tizimining o‘rnini beqiyosdir. Qadriyatlar oiladan shakllansa, jamiyat orqali to‘ldirib boriladi. Shaxsning qaror qabul qilishida ijtimoiy muhitning ta’siri juda katta rol o‘ynaydi. Inson qanday ijtimoiy muhitda yashasa, atrofidagilarning qanday ekanligi, ularning hayotiy tajribasi shaxsning kelajak rejalarini shakllantirishi oydinlashadi. Aynan ayollar migratsiyasiga sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida chet elda yashab, farovon hayotga erishayotgan insonlarni ijtimoiy tarmoqlarda kuzatish, qarindosh, tanishlarni chet-el haqidagi iliq fikrlarini eshitish orqali o‘z kelajagini migratsiya bilan bog‘lash kabi holatni ko‘rsatish mumkin. Ba’zi oilalarda “chet elda ishlabgina biror narsaga erishish mumkin”, degan stereotip ham mavjud. Bu kabi qarashlar oiladagi o‘sib kelayotgan yosh avlodning oliy ma’lumotli bo‘lish yoki kasb-hunar o‘rganish kabi faoliyat bilan shug‘ullanishni oldiga maqsad qilib qo‘ymasdan, chet elda omadini sinab ko‘rish xohishi ko‘payayotganini achinarli deb hisoblash mumkin.

<sup>9</sup> Пескова Д.Р., Абреу Бастос О.П. Причины, риск и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне // Фундаментальные исследования. 2014. № 11, гл. 3. – С. 596-600.

Chet davlatda ishslashning qanday ijobiy tomonlari borligi so‘ralganda moddiy ehtiyojlarni qoplash javobini 86%, erkinlikni 7%, tadbirkorlik va mutaxassislik bo‘yicha tajriba orttirishni 5%, orzu-havaslarga erishishni 2% migrant tanlagan. Xotin-qizlarning aksariyati (86%ni) xorijda mehnat qilishning ijobiy va foydali tomoni moddiy ehtiyojlarni qoplash deb bildirgan. Tashqi mehnat migratsiyasida duch kelingan huquqiy muammolar haqida respondentlar fikri quyidagicha tus oldi: hujjat rasmiylashtirishdagi to‘silqr 82%, oylik maoshi kamligi 9,5%, oylik maoshni to‘liq ololmaslik 3%, ish beruvchi tomonidan vazifalar qatoriga kirmaydigan ishlarni qilishga majburlash 3%, ish beruvchi tomonidan tahqirlash 2,5%ni tashkil etdi. Huquqiy muammolarning 82%ni ko‘pincha hujjat rasmiylashtirish bilan bog‘liq muammolar ekani aniqlandi. Chet elga ketganlikning shaxsiy moddiy ahvoliga ta’siri o‘rganilganda, xotin-qizlarning 90%ni moddiy ahvoli yaxshilanganini, 2%ni ancha yaxshilanganini hamda yana migratsiya qilish motivi borligini, 4,5%ni ahvol o‘zgarmaganligini, 2,5%ni juda ham qiynganini ta’kidlagan. Turkiyaga migratsiya motivi ijtimoiy moslashish hamda kutganlarining oqlaganini 90% xotin-qizlar ta’kidlab, moddiy ahvoli ancha yaxshilanganini bildirgan.

#### 5-jadval

#### “Farzandingizni o‘zingiz bilan chet elga olib ketganmisiz?” savoliga berilgan javoblar

Javoblar	Soni (nafar)	Foizi (%)
Ha	45 nafar	11,3%
Yo‘q	308 nafar	77,0%
Javob berishim qiyin	47 nafar	11,7%
Jami:	400 nafar	100,0%

Natijalardan 77% xotin-qizlar mehnat migratsiyasiga yolg‘iz o‘zi farzandlarsiz borgani oydinlashadi. O‘zi bilan birga olib ketganda qanday qiyinchiliklar bo‘lishi haqidagi savollar xotin-qizlardan so‘ralganda, 29%i farzandi tez moslashishini, 38,8%i tilni bilmagani uchun mabtaga hamda bog‘chada qiyalishini, 28,8%i mabtaga va bog‘chaga joylashda qiyinchiliklar bo‘lishini hamda 3%i farzandi yurtiga qaytib ketishini xohlashi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan. Olingan empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, xotin-qizlarning o‘zlarini bilan farzandlarni olib kelishni

istamasliklariga asosiy sabab sifatida til omili hamda mabtaga va bog‘chaga farzandini joylashtira olmaslik borasidagi stereotiplar va moslashuvlar sabab bo‘ladi. Xotin-qizlardan farzandi bilan qanchalik darajada muloqot qilishi borasidagi savollar so‘ralganda, ularning 71,5%ni har kuni telefon orqali gaplashishini, 20%ni ijtimoiy tarmoqlar orqali yozishib, xabarlashib turishini, 3,5%ni 3 kunda bir marta telefon orqali muloqot qilishini, 5%ni umuman muloqot qilmasligini aytgan. Xotin-qizlarning o‘z farzandlari taqdirlari, yumushlari hamda hissiy holati bilan qiziqishlari ko‘proq ekani hamda telefon orqali muloqot qilish bilan bolaga nisbatan mehr ehtiyojlarini qondirishi oydinlashadi.

**Yakuniy qism.** Xotin-qizlar migratsiyasining feminizatsiyasi zamonaviy global iqtisodiy jarayonlarning muhim xususiyatiga aylanib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasining ustunlik kasb etishi bilan bog‘liq. Xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori malakani talab qilmaydigan ishlarning ortishi rivojlangan davlatlarda mehnat migrantlari, xususan, xotin-qizlarga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Xotin-qizlar migratsiyasiga sabab bo‘luvchi omillar O‘zbekistonda ishsizlik darajasining yuqoriligi va yurt ichida munosib ish topishning qiyinligi ayollarning migratsiyaga moyillagini kuchaytirmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, migrant ayollarning 86%ni migratsiyaning asosiy ijobiy tomoni o‘zining moddiy ahvolini yaxshilashd deb baholagan. Shuningdek, shaxsiy omillar ham mavjud bo‘lib, ajrashgan ayollarning iqtisodiy mustaqillikka erishish istagini inobatga olish kerak. Tadqiqotda qatnashgan migrant ayollarning 31%ga yaqini ajrashganlar ekan bu tendensiyani quvvatlaydi. Tadqiqot jarayonida madaniy va ijtimoiy bosimlar mavjudligi kuzatildi. Xususan, o‘z mamlakatlarda mustaqil shaxs sifatida o‘zini namoyon etish imkoniyatining cheklangan ham migratsiyaning rag‘batlantiruvchi omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Migratsiyaning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, xotin-qizlar tomonidan oilaga yuboriladigan mablag‘lar mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlab, oilaviy daromadlar darajasini oshirmoqda. Shu bilan birga, bu vatanda qolgan farzandlarining ta’lim olishi uchun moddiy ta’midot vazifasini o‘taydi. Turkiyaga borgan xotin-qizlar shaxsiy tajribasini oshirib, yangi

ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda, bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Biroq, salbiy oqibatlarni ham inobatga olish kerak. Migrantlarning 74%i muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta'kidlagan. Bu, ayniqsa, tilni bilmaslik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, bunday holat kuchli ruhiy va jismoniy charchoqning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. 85,2% migrant ayollar ish beruvchilar bilan rasmiy shartnoma tuzmagan. Bu ko'rsatkich migrant xotin-qizlarda huquqiy himoyaning yo'qligiga dalolat bo'lib, mehnat huquqlarining poymol qilinishiga olib kelmoqda. Migrant ayollarning 77%i farzandlarini vatanida qoldirgan, bu migratsiyaning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, bolalarda ruhiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xotin-qizlar migratsiyasi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga muhim hissa qo'shamoqda, biroq uning ijtimoiy va psixologik oqibatlari ularning hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xotin-qizlar migratsiyasidagi feminizatsiya jarayoni global xizmat ko'rsatish sohasida talabni qondirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, uni samarali boshqarish uchun ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Ijtimoiyadolatni ta'minlash, qonuniy himoya

mexanizmlarini kuchaytirish va xotin-qizlarni ruhiy qo'llab-quvvatlash orqali migratsiya jarayonini xavfsiz va samarali qilish mumkin. Bu nafaqat migrant ayollarning shaxsiy hayoti va sog'ligiga, balki umumiy jamiyatning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, migratsiya oqimlari intensivligining oshishi va migratsiya tadqiqotlarining rivojlanishi bilan mamlakatimiz zamonaviy migratsiya jarayonlari masalalari bo'yicha xalqaro munozaraning ishtiroychisiga aylandi. Biroq migratsiya jarayonlarining tuzilishi, yo'nalishi va mohiyatini o'zgartirish ushbu hodisani o'rganishga yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish talabini qo'yamoqda. Shuningdek, bu ehtiyoj zamonaviy ilmiy bilimlarda migratsiya tadqiqotlarining intizomi bo'linishi sharoitida alohida fanlarning yutuqlarini to'playdigan yagona kompleks yondashuv mayjud emasligi bilan ham dolzarb bo'lmoqda. Intizomiy cheklovlarni yengib o'tish imkoniyatlaridan biri qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar o'tkazish orqali ta'minlanadi, bu bizga migratsiya oqimlarining iqtisodiy va etnik tarkibi, migratsiya jarayonlarining tarixiy dinamikasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi o'xshashlik va farqlarning ta'sirini hisobga olishga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahonen T.A. Acculturation expectations and experiences as predictors of ethnic migrants' psychological well-being / T.A. Mähönen, I. Jasinskaja-Lahti // Journal of Cross-Cultural Psychology. – 2013. – Vol. 44. – № 56. pp. 786-806.
2. Graeme H. "Migration and Women's Empowerment" in Presser, Harriet/Sen, Gita (ed), Women's Empowerment and Demographic Processes, Moving beyond Cairo, Oxford, 2000, p.288.
3. Hania Z. Female migrants: bridging the gaps throughout the life cycle selected papers of the unfpaiom expert group meeting New York, May 2-3, 2006.
4. Yang F. Breadwinning: Migrant workers' family motivation in facing life-threatening events and its performance implications. Journal of Business Research, 2022, no. 150, pp. 491–502.
5. Александрова О.Е. Семейные и индивидуально-психологические характеристики жизнеспособности эмигрантов. Человек в условиях неопределенности. Сборник научных трудов научно-практической конференции с международным участием. В 2-х т. Т. 1.
6. Баднер С. Нетерпимость к неопределенности как переменная личности. Журнал личности. 1962. вып. 3 (1). – С. 29–50
7. Барсукова М.Е. Женщины и миграция: причины, проблемы и последствия // Женщина в российском обществе. 2012. № 2. –С. 78–82.
8. Илимбетова А.А. Факторы и экономические последствия женской трудовой миграции в России // Вестник Московского университета. Сер. 6. 2013. № 4. – С. 89-100.
9. Пескова Д.Р., Абреу Бастос О.П. Причины, риск и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне // Фундаментальные исследования. 2014. № 11, гл. 3. – С. 596-600.

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,  
Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullahov L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.